

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 12 (67229)
2019-yil 25-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



PARVOZING YANADA YUKSALSIN, HUMO!



Yurtimizga iliq, huzurbaxsh kunlarni, qo'sha-qo'sha bayramlarni boshlab kelgan bahorning ilk oyida yana bir shodiyonaga guvoh bo'ldik. Kuni kecha bo'lib o'tgan ko'p tarmoqli «Humo Arena» sport kompleksining ochilish marosimi haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tabrik so'zi bilan ochib bergan marosimda ko'plab davlat va jamoat arboblari, xorijlik sport va san'at ustalari, minglab hamyurtlarimiz ishtirok etishdi.

Ikki yil mobaynida qad rostlagan mazkur 74000 kvadrat metrli inshootda ikki arena tashkil etildi: biri asosiy musobaqalar o'tkaziladigan, ikkinchisi mashqlar arenasini. Quvonarlisi, asosiy arena o'z bag'riga 12500 tomoshabinni sig'dira oladi. «Humo Arena»da xokkey, figurali uchishdan tashqari basketbol, voleybol, gandbol, futzal muso-

baqalarini tashkil qilish, konsertlar va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish imkoniyati ham mavjud. Shuningdek, bolalar uchun xokkey va figurali uchish maktablari tashkil etish ham mo'ljallanmoqda. Figurali uchish maktabiga bolalar 3 yoshdan, xokkey maktabiga esa 5 yoshdan qabul qilinadi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, O'zbe-

kistonimiz chiroyiga uzukka ko'z qo'ygandek yarashgan «Humo Arena» mamlakatimizda barcha sport turlari qatori qishki sport turlarini ham rivojlantirishga hissa qo'shishi, xokkey va figurali uchish turiga qiziquvchan o'g'il-qizlarning eng sevimli maskaniga aylanishi, shubhasiz.

F. JALILOVA

Har yili bahorni, daraxtlarning gullashini, quyosh ona yerni qizdirib, ko'katlar-u yalpizlar unishini intiqib kutamiz. Xuddi bahor kelsa, hayotimizda qandaydir ijobiy o'zgarishlar bo'ladigandek, quvonchli mujdalar ketma-ket yog'iladigandek...

ORZULAR, ALBATTA, USHALADI,

- deydi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Sarvinoz Tuliyeva.

Axir bahor yangiliklar, o'zgarishlarga yo'l ochib beradigan fasl ekani chin haqiqat. Kech kuzdan toki ko'klamga qadar necha-necha tunlarni bedor o'tkazgan, «Zulfiyaxonim izdoshi bo'la olarmikanman?» deya o'z-o'ziga savol bergan qizlardan ko'klamning qadriini so'rash kerak, aslida. Bu yil ham 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida an'anaga muvofiq o'zining irodasi, iqtidori-yu iste'dodini namoyish qila olgan 28 nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusiga binoan bu yil o'zgararoq tarzda, ya'ni har bir viloyatdan ikki nafardan iste'dod sohibasi Davlat mukofotini olishga, ko'ksiga Zulfiyaxonim siymosi muhrlangan nishonni taqishga muvaffaq bo'lgani barchani behad quvontirdi. Ular orasida Toshkent davlat agrar universitetining Nukus filiali qoshidagi To'rtko'l akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi Sarvinoz Tuliyeva ham bor.

Sarvinoz adabiyotga 6-sinfda o'qib yurgan kezlarda mehr qo'ygan. Uning «Tinchlik qo'shig'i» deb nomlangan ilk she'ri «Tong yulduzi» gazetasida chop etilgan edi. Ijodkor qizning bugunga qadar «Hurriyat qo'shig'i», «Haqiqat qiziman», «Tong shu'lası» nomli she'riy to'plamlari nashrdan chiqqan. U o'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasining «Amudaryo» jurnali tomonidan o'tkazilgan tanlovning «Eng yaxshi she'r» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

– Ushbu mukofotga sazovor bo'lishimda mehnati singan barcha ustozlarimdan, nashriyot xodimlaridan, ayniqsa, onajonimdan cheksiz minnatdorman, – deydi Sarvinoz. – Gohida ikkilangan onlarim ham bo'ldi. Ammo men maqsadim sari olg'a qadam bosaverdim. Mana, natijasini ko'rib turibsizlar. Men barcha tengdoshlarimga, uka-singillarimga «Orzu qiling, orzu qilganda ham eng kattalarini tilang, ana o'shanda barchasiga erishasiz», deymen.

Sarvinozning yutuqlarini sanayversak, adog'iga yetolmaymiz. Ijodkor qiz kelajakda o'z she'rlari bilan she'riyat ixlosmandlarining ko'nglini olishga bel bog'lagan.

Bugun Sarvinoz singari «Zulfiyaxonim qizlari» bo'lishni oldiga maqsad qilgan qizlar safi kengayib borayotgani, shubhasiz. Bu opangiz ham ijod olamiga ilk qadamlarini bizning gazetamiz orqali qo'ya boshlagan. Shunday ekan, siz ham orzu qilishdan to'xtamang, ijod namunalaringizni tengdoshlaringiz bilan bo'lishing!

Ozoda TURSUNBOYEVA

O'z muxbirimiz

«QIZLARJON» SAMMITI

Qizlar hayotida yangi sahifa ochdi

Aziz qizlarjon! Siz deputat-u rahbar ayollar bilan ochiq muloqotda ishtirok etishni, tengdoshlaringiz bilan birgalikda ilm-fan rivoji yo'lidagi takliflaringizni muhokama qilishni istaysizmi? 23–26-mart kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tayotgan «Qizlarjon» o'quvchi-qizlar sammiti dilida ana shunday ezgu istagi, maqsadi bor, a'lochi-yu faol iste'dod egalarini bir yerga jamladi.

«Ilm-fan – kelajak poydevori» shiori ostida o'tkazilayotgan sammitda 14–18 yoshdagi 8–11-sinf o'quvchi-qizlari ishtirok etmoqda. Tadbirdan maqsad, qizlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'rgatish, shuningdek, ularni milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ishtirokchilar turli yo'nalishlarda saralangan bo'lib, ular orasida «Qizlarjon» klubi koordinatorlari, xalqaro va respublika fan olimpiadalari g'oliblari, innovatsion g'oyalari mualliflari-yu hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan iqtidor sohibalari ham bor. Sammit doirasida qizlar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli mahorat darslarida, zamonaviy AKT imkoniyatlarini hayotga tatbiq etish usullari, innovatsion menejment, marketing kabi mavzulardagi treninglarda ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, respublika Xotin-qizlar qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi hamda Samarqand viloyati hokimligi hamkorligida o'tkazilayotgan mazkur tadbir yurtimiz qizlari uchun o'z orzulariga yetishida yangi imkoniyat bo'ldi.

«Qizlarjon» sammiti haqidagi taassurotlar bilan gazetamizning navbatdagi sonida tanishasiz.



E'ZOZ TOPGAN E'ZOZA

Yurtboshimizning qo'llaridan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini qabul qilib olgan E'zoza qizning ko'nglidan latif shoirimiz Zulfiyaxonimning quyidagi satrlari kechgan bo'lsa, ne ajab!

E'zozlar, ardoqlar uchun tashakkur,
Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman.

Axir bugun ushbu iqtidorli o'quvchi qiz ana shunday yuksak e'zoz, e'tiborga sazovor bo'ldi. O'zbekning yana bir baxtli, bo'lajak Zulfiyasiga aylandi.

yotga mehr qo'ygan. Yosh ijodkor viloyat Yo'zuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan «Mitti yulduz jilolari» to'garagi va «Iste'dodli yoshlar» klubining faol a'zosi hisoblanadi. Biz bilan suhbatda E'zozaxon o'z yutuqlari haqida kamtarlik bilan so'z boshlab, she'r va maqolalari «Tong yulduzi» gazetasida ham chop etilganini aytib o'tdi. Bundan tashqari, mazkur mukofotga

fan yo'nalishi bo'yicha sazovor bo'lgan qahramonimiz o'tgan yili Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro «Sakura axborot almashish» dasturida ilm-fan bo'yicha Osiyo yoshlari tajriba almashish kursini tamomlab, sertifikat bilan taqdirlangan ekan. Kelajakdagi rejalar haqida esa tengdoshingizning o'zidan eshiting:

– Odatda orzu-maqsadlar haqida so'zlagandan keyin ularni amalga oshirish ham zarur bo'ladi. Zero, men

qilinmaydigan ishlar haqida shunchaki gapirishdan ehtiyot bo'laman. Rejalarimdan biri esa ingliz va yapon tilini puxta o'rganish. O'tgan yili Yaponiyaga borganimda, bu millat tilini biroz o'rgangan edim. Xorijda ham ta'lim olib, dunyoqarashi keng va salohiyatli inson bo'lishga intilaman. Zero, yurtimizga bugun shunday yoshlar, mutaxassislar kerak.

Bu samimiy va ko'ngli nozik, ammo dadil va tirish-

qoq o'zbek qiziga nafaqat tengdoshlari, balki men ham havas qildim. Beixtiyor Zulfiya mukofotiga nomzod bo'lgan o'quvchilik yillarim yodimga tushdi. O'shanda garchi qahramonim kabi bu yutuqqa erisha olmagani bo'lsam-da, orzularim sari olg'a intilishni, maqsad sari tinmay mehnat qilishni o'rganganman.

Sayyora QODIROVA



Minglab tengdoshlari havas qilayotgan E'zoza Alisherova Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 10-sinf o'quvchisi. Istarali va nozik tabiatli bu iste'dod sohibasi bolaligidanoq adabi-

SINFIMIZ MATBUOTCHISIMAN

Meni sinfimiz matbuotchisi deyishadi. Buning sababi, sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ni birinchi bo'lib men qo'limga olaman.

Sinfodshlarim bilan birgalikda uning har bir sahifasini katta qiziqish bilan o'qib chiqamiz. Qolaversa, «Sinf devoriy gazetasi»da she'rilarim bilan muntazam qatnashaman. Gazetada maqolam, she'rilarim chop etilsa, quvonib ketaman. Xudoyberdi bobo ertaklarini ham miriqib o'qiyapman.

Shahzoda NODIROVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi

IBN SINO O'GITI

Ta'til kunlarimda dadam meni Toshkentga sayohatga olib bordi. Oqsaroyini, Mustaqillik maydoni, yangi ko'priklarni, qad rostlagan ko'p qavatli uylarni ko'rib, poytaxtimiz chiroyi va ozodaligidan hayratga tushdim. «Hayvonot bog'i»dagi hayvonlarni zavq-shavq bilan tomosha qildim.



Sayohatim taassurotlarini sinfdoshlarim Diyor, Sulton, Ozoda, Sanjar, Mohinur, Muxlisaga gapirib berdim.

Dadam ko'p mutolaa qilgani sababli, bizni ham kitob o'qishimizni istaydi. Men bo'sh vaqtimda singlimga ertaklar o'qib beraman. Shu bois, ular bizga doim kitoblar sovg'a qiladi. Yaqinda dadam «Champo o'tli ilon» nomli ertaklar to'plamini olib keldi. Ular Abu Ali ibn Sinoning bir o'g'itini ibrat qilib so'zlab berishdan charchamaydi: «Birinchi kitobni o'qiganingdan keyin, go'yo hamma narsani bilganday bo'lasan. Ikkinchi kitobni o'qiganingdan keyin, hali ko'p narsalarni bilmasliging ma'lum bo'lib qoladi. Uchinchi kitobni o'qiganingdan keyin hali hech narsa bilmasliging ma'lum bo'ladi». Bu ibratdagi xulosani esa o'zimiz chiqaramiz.

Orzubek JASUROV,
Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi

Farg'ona viloyatining eng olis va chekka qishlog'idagi maktabda kutubxonachi bo'lib ishlayman. Sizlarga maktub yozishga undagan narsa shu bo'ldiki, bizning o'quvchilarimiz bilimga chanqoq. O'quvchilarimizning ijod namunalari bolalar nashrlarida doimiy chop etiladi. «Tong yulduzi» gazetasi e'lon qilinadigan tanlovlarda faol qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritishyapti.

KUTUBXONA QIROLI VA QIROLICHASI ANIQLANDI


Shuningdek, o'quvchilarimizning kitobsevarligi meni xursand qiladi. Kutubxonamizda barcha sharoitlar mavjud. O'quvchilar darsdan keyin qolib, bimalol mutolaa bilan mashg'ul bo'lishadi.

Ularni kitobga qiziqishlarini oshirish maqsadida turli tadbir va tanlovlar o'tkazib boramiz. Jumladan, yaqinda «Eng faol kitobxon» tanlovini o'tkazdik. Ushbu bellashuv natijalariga ko'ra, 7-«A» sinf o'quvchisi Kamron Ikromaliyev «Kutubxona qiroli», 10-«A» sinf o'quvchisi Mohinur Dehqonova «Kutubxona qirolichasi» nominatsiya g'olibi bo'lib, maktab rahbariyati tomonidan taqdirlandi.

Maktabimiz rahbari Bahridin Yormatov ham o'quvchilarning kitobga bo'lgan talabini doimo nazorat qilib turadi. Turli-tuman tadbirlar – suhbatlar, tanlovlar o'tkazishga bosh-qosh. Ustozlarning ham kitob o'qishga ishtiyiqi juda balandligi o'quvchilarga ibrat bo'lmoqda.

Men yosh avlodni tarbiyalashga o'z hissamni qo'shayotganimdan faxrlanam.

Fariza AHMEDOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining kutubxonachisi



XONCHORBOG'DAGI MAKTAB

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 119-umumta'lim maktabida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida O'zbekiston Milliy universitetining xorijiy filologiya fakulteti hamda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi bilan hamkorlik shartnomalari tuzilib, ko'plab seminar, trening, ochiq darslar va turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Kuni kecha mazkur umumta'lim maskanida «Ochiq darslar kuni» bo'lib o'tdi. Unda ota-onalar, tuman XTB uslubchilari, maktab kuzatuv Kengashi a'zolari, «Xonchorbog'» MFY faollari hamda tumandagi maktablardan fan o'qituvchilari ishtirok etib, dars jarayonlarini kuzatdi, o'z fikr-mulohazalari hamda tavsiyalari bilan o'rtoqlashdi.



– Maktab binosi hozirgi kunda kapital ta'mirlanmoqda. Bilim maskanida ota-onalarning xohish-ishtaklarini inobatga olgan holda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida darsdan so'ng badiiy gimnastika, taekvando, shaxmat-shashka kabi sport hamda fan to'garaklari, notiqlik san'ati va drama yo'nalishida mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Shu bilan birga, yaqin kelajakda maktabda 2-sinfdan boshlab rus tili va matematika fanlariga chuqurlashtirilgan sinflar ochilishi rejalashtirilmoqda, – deydi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Munajat Abdug'afrova.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu ta'lim maskanida o'quvchilarning bo'sh vaqtlari maroqli, mazmunli o'tmoqda.

O'z muxbirimiz



Suratlarda: maktabda o'tkazilgan tadbirlardan lavhalar.



T o s h -
kent shahar, Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilari o'rtasida «Matematika – fanlar sultoni» mavzusida zakovat intellektual musobaqasi bo'lib o'tdi.

MATEMATIKA – FANLAR SULTONI

Birinchi shart «Tanishtiruv» deb nomlandi. Unda o'quvchilar o'zlari haqida yig'ilganlarga atroflicha ma'lumot berdilar. Tezkor savollar shartida har ikkala guruh 1 daqiqa ichida 10 ta savolga javob berib, barchani lol qoldirdi.

Keyingi shartda esa o'g'il-qizlar nafaqat matematika, balki adabiyot fanidan olgan bilimlarini ham sinovdan o'tkazdi. Jumladan, tarkibida sonlar ishtirok etgan maqollar aytishuvi barchaga manzur bo'ldi. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishi ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Sardorlar bellashuvi, krossvord yechish kabi shartlarda esa o'quvchilarning ziyrakligi, chaqqonligi, topqirligi yana bir bor sinovdan o'tdi.

Tadbir yakunida g'olib o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yoriqlar bilan taqdirlandi.

Muzaffar AHMEDOV

A'LO TA'TIL

Aziz tengdoshim! «A'lo ta'til» loyihasi haqida eshitgansiz-a?! Bugun men sizga ana shu aksiya doirasida o'tgan maroqli ta'til taassurotlarim haqida so'zlab bermoqchiman.

Viloyatimizning 12 nafar iste'dodli yoshlari qatori men ham yetakchimiz G'olibjon Abdurahmonov boshchiligida go'zal Surxon vohasiga sayohatga bordim. «Amudaryo» xalqaro bolalar oromgohida loyihaning rasmiy ochilishidan so'ng bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarning guvohi bo'ldik. Dastlab, vohaning eng yirik kutubxonasiga bordik. Shuningdek, Arxeologiya muzeyiga qilgan sayohatimiz orqali viloyat tarixi bilan yaqindan tanishdik.

Ta'tilimizning ikkinchi kunida tashkil qilingan «Zakovat» intellektual o'yini ishtirokchilarning bilimini sinagan bo'lsa, sport o'yinlari barchani faollikka chorladi. Tushdan so'ng esa madaniy hordiq chiqarish maqsadida teatrga bordik. Loyiha doirasidagi «Sumalak party» esa barchaga bayramona kayfiyat ulashdi. Milliy qadriyatlar festivali, «Tengdoshimga izhorim» loyihasi, hayvonot bog'iga sayohat, turli ziyoratlar ehe, ularning bari juda zavqli edi. Xullas, «A'lo ta'til» a'lo o'tdi.



Lobarxon JALOLOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi 11-DIUMning 9-sinf o'quvchisi

YURTIMDA NAVRO'Z!



Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 212-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan «Assalom, Navro'z!» bayram tadbirida boshlang'ich sinf o'quvchilari she'rlar aytib, kuy-raqslar ijro etdi. Tadbirda Hilola Normatova rahbarlik qilayotgan 3-«A» hamda Shahlo Atabayeva rahbarligidagi 3-«G» sinf o'quvchilari faol ishtirok etdi. 3-«A», 3-«G» sinf o'quvchilarining karnay-surnay sadolari tadbir ishtirokchilarini quvnoq raqsga chorladi.



«Assalom, Navro'z!» tadbiri poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabida ham tashkil etildi. Bayram tantanalarida Davlat Inog'omova, Zuhra Rixsiyeva, Munira Bositxonova rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilari ham faol ishtirok etdi.

BILIM «O'G'RISI»

Mening mehribon, kuyunchak va tinib-tinchimas buvijonim bor.

Buvim bizga «Odam «Bilim o'g'risi» bo'lishi kerak», desalar, «Voy-y, bilimni o'g'irlashmas, kitoblardan o'rganish kerak», deya «aqlilik» qilsak, buvim «Shunday bilimlar borki, ularni o'rganish uchun yuzlab kitob titkilashingiz kerak. Aslida esa ular yoningda, atrofingdagi mehnatkash, dono momo-bobolar-u, katta-kichiklarning boy tajribalarida bo'ladi», derdilar.



Buni qarangi, ular haq bo'lib chiqdi. Men shuni tushundimki, bilimni faqat kattalardan emas, tengdoshlarimizdan, opa-akalarimizdan, hatto kichikintoylardan ham o'rganish mumkin ekan. Ishonmaysizmi? Unda siz ham atrofingizdakilarga e'tiborliroq, o'zingizga esa talabchanroq bo'ling. Shunda so'zlarim to'g'ri ekaniga amin bo'lasiz. Men esa sizlarga o'simliklar bilan bog'liq kattalardan «o'g'irlangan bilim»larni aytib beray...

***Agar hovlingizni begona o't va ajriqlardan tozalamoqchi bo'lsangiz, ularni faqat jazirama yozda chopib tashlang. Chunki yozda yog'ingarchiliklar deyarli bo'lmaydi. Yovvoyi o'tning ildizi qurib, qayta unib chiqmaydi.**

***Shaftoli ko'chatini bog'ingiz yoki hovlingizning chekkarog'iga, boshqa daraxtlardan uzoqroqqa eking. Chunki u tez hosilga kirsada, tanasi mo'troq bo'ladi. Unga tez shira yopishadi. Alohida ekilgan shaftolining esa boshqa daraxtlarga shirasi yuqmaydi.**

Ana shunaqa... «Bilim o'g'risi» bo'lish yomon emas-a, nima dedingiz?

Sokina KARIMOVA,

**Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
50-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi**

Sahnada mehmondo'stlik haqida bir-biridan mazmunli maqollar aytayotgan o'quvchilar poytaxtimizdagi 274-umumta'lim maktabining Munira Shermonova rahbarlik qilayotgan 2-«E» sinfining jajji o'g'il-qizlari. Ularning navbatdagi tadbiri «Mehmondo'st o'zbek xalqim», deya nomlandi.

MEHMONDO'ST XALQIM

«Mehmon – otangdan ulug'», deydi xalqimiz. Xonadonimizga kelgan insonni mehr bilan kutib olib, hurmati va izzatini joyiga

kirilmaydi, ovozni baralla qo'yib, baland gapirilmaydi.

– Evram Muslima Jo'rayeva shu sinfda o'qiydi. Biz ota-onalar har bir tadbirda farzandlarimizning chiqishlarini zavq bilan tomosha qilamiz,– deydi Sayyora xo'ji ona. – Bugungi mavzu bolalarning yoshiga juda munosib. Ular ijrosidagi sahna ko'rinishlari barcha ota-onalarga manzur bo'ldi. Evram she'rlar yod oldi, raqsga tushdi, sahna ko'rinishlarida ishtirok etdi.

– Sinf rahbarimiz Munira opa bizga mehmondo'stlik haqida hikoyalar so'zlab berdi,– deydi Shoahmad Shojalilov. – Zalda onajonim mening chiqishlarimni tomosha qildi. Mehmonga borganda nima-



qo'ysak, boshi osmonga yetadi. Bu himmatimizdan o'zimiz ham olam-olam quvonch olamiz. Axir xalqimiz «Bug'doy noning bo'lmasa ham bug'doy so'zing bo'lsin», deganda mehmonga munosabatni ham nazarda tutgan bo'lsa, ajabmas.

Mehmon kutishning o'zgacha fayzi-tarovatli bor. Biror yaqinligingizning xonadoniga borganda, uy egasi qayta-qayta chaqirilmaydi, taklifni kutmasdan ichkariga



larga e'tibor qilish kerakligi haqida tegishli xulosalar chiqardim.

Nodira YORMAT qiz'

Lesson 12

ON, AT, IN

A preposition is a word that links a noun, pronoun, or noun phrase to some other part of the sentence. prepositions are used to show direction, location, or time, or to introduce an object.

On

This proposition is used to express a surface of something:

e.g. *Your book is on my desk.*

With specify dates and days:

e.g. *Abdulla Oripov was born on the 21th day of March in 1941*

Used to indicate a device or machine, such as a phone or computer:

e.g. *I am watching my favorite film on TV.*

Used to indicate a part of the body:

e.g. *My mother kissed me on my cheek.*

At

Used to describe specific time:

e.g. *I met her at 12 p.m.*

Used to indicate a place:

e.g. *We organized speaking club at the school.*

Used to indicate an email address:

e.g. *Information is given at ziyo.uz.*

Used to indicate an activity.

e.g. *I am good at running.*

In

Used for unspecific times during a day, month, season, year:

e.g. *She always reads newspapers in the morning.*

Used to indicate a location or place:

e.g. *I am staying in a school.*

Used to indicate a shape, color, or size:

e.g. *The students stood in a circle.*

Used to indicate a belief, opinion, interest, or feeling:

e.g. *We are not interested in skiing.*



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

ILM-U HUNAR - OLTIN-U ZAR

Aziz o'quvchim! Har biringizni o'zingiz yoqtirgan sevimli faningiz bor. Ammo barchangiz uchun birday qiziqarli va kelajakda asqotadigan bir dars borki, u mehnat va texnologiya fanidir. Sizning ana shu fanlarni puxta o'rganishingiz uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini zarur jihozlar bilan ta'minlash choralari ko'rila-yotganidan xabaringiz bor.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Umumiy o'rta ta'lim muassasalari 10–11-sinf o'quvchilariga o'quv-ishlab chiqarish majmualarida beriladigan kasblar» mavzusida media-tur tashkil etildi. Tadbir doirasida vazirlik tasarrufidagi profilni mehnat ta'limiga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida o'quvchilarni kasbiy ta'limga yo'naltirish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishildi. Ushbu o'quv dargohining mehnat fani xonasida katta qiziqish va ishtiyiq bilan kalit ilgich yasayotgan o'g'il bolalarni kuzatar ekanmiz, 6-«A» sinf o'quvchisi Abdulaziz Asatullayevning fikrlari bilan qiziqdik:

– Mehnat fanini juda yaxshi ko'raman. O'z qo'lim bilan yasagan turli buyumlarni yaqinlarimga sovg'a qilgim keladi. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishimdan qat'iy nazar, bugun o'rganayotgan ilm-u hunarim menga asqotadi.

Ushbu ta'lim maskanida kasbiy ta'limning tikuvchilik, qandolatchilik, uy hamshirasi kabi yo'nalishlarini o'quvchilarga

chuqur o'rgatish yo'lga qo'yilgan ekan. Shu bois, 10-«B» sinf o'quvchisi Diyora Rustamova kabi zehni va qo'ligul qizlar



ajoyib san'at asarlarini yaratmoqda.

Bundan tashqari, media-tur davomida Olmazor tumanidagi kasb-hunar kollejaridagi o'quv-ishlab chiqarish majmualarida ham bo'ldik. Umumang olganda, hozirgi kunda ushbu yo'nalishda o'quvchilarga 51 ta kasb o'rgatilmogda. E'tiborlisi, malaka talablarini bajargan, o'quv-dasturlarida belgilangan bilimlarni o'zlashtirgan o'quvchilarga kasb malakasi diplomi beriladi.

S.QODIROVA



NIHOL


To's-to'polon ko'tarib,
Shiddat bilan bog'lab bel.
Katta xarsangni tog'dan,
Dumalatib keldi sel.

Po'panak qoldi o'ylab,
Yopishdi etagiga.
Qolgan edi bir urug',
Xarsang toshing tagida.

O'rmalab asta-asta,
Chiqdi xarsang boshiga.
Yemirilar hatto tosh,
Chidolmas ko'k yoshiga.

Yorildi dag'al xarsang,
Yo'sin hurpaytirdi yol.
Juft tosh kaft orasidan,
Unib chiqdi bir nihol...

Juft kaft balodan asrar,
El ko'nglini shod etgan.
Mevasidan bahramand,
Bo'lmoqda o'tgan-ketgan.



DASTURKONDA

Dasturxon uzra anor,
Ko'ringanda kirar jon.
Shira ishlab chiqarar,
O'zin siqib oshqozon.

Yong'oq boshin tosh yorar,
Ko'nglin yorar ovozi.
Bodomlar qo'rqanidan,
Boqar lang ochib og'zin.

Anjir yuzi burishgan,
Pista tili ko'kargan.
Turshak suvi dil dardin,
Olib boshin ko'targan.

Bir qoshiq asal yesam,
Tabiblik qilar habib.
Rangli ichimlik, xot-dog,
Oldida esholmas ip.

Bilim olishga chorlar,
Charchamam, dil ovlayman.
O'zim po'latday toblab,
Tabiiy davolayman.

Mo'min AVAZOV,
Sirdaryo shahri

VATAN

Kun sayin o'sar bo'yim,
O'sayapti ham aqlim.
Tushunapman qadringni,
Jonajonim – Vatanim.

ZIYODA

Yetarlicha bilimli,
Intizomli Ziyoda.
Shunday bo'lsa qaniydi,
Hamma bola dunyoda.

Me'yorida o'qishi,
Fe'li yuvvosh tabiat.
Olib qolsa bitta uch,
Qilib yurar oriyat.

Saydulla QOPLONOV,
Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi
11-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Sen men uchun azizsan,
Buvim yopgan shirmoydek.
Tafting bunchalar iliq,
Onajonim bag'ridek.

Ziyodillo BAXSHILLAYEV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tu-
manidagi 2-«B» sinf o'quvchisi

Har topshiriq, har ishni,
Chin ko'ngildan bajarar.
Undan kim ibrat olsa,
Zig'ircha ko'rmas zarar.

Har bir bola u kabi,
Ish, o'qishga o'rtoqdir.
Yashnar umr daraxti,
Kelajagi porloqdir.

YASHNAYAPTI HUR O'ZBEKISTON

Men tug'ildim ajib makonda,
Jannatmakon hur oshiyonda.
Alpomishga taqalar nasli,
Barchinoyga o'xshaydi aslim.



Ustozlarim dono, bilimdon,
Bilim berar bizlarga har on.
Yo'limizni yoritir quyosh,
Yurtboshimiz erur bizga bosh.

Qo'llar bizni bobolarimiz,
To'lib oqar daryolarimiz.
Hayot gulgun hamda farovon,
Yashnayapti hur O'zbekiston.

Mohida RAHMATOVA,
Surxondaryo viloyati, Muzrobot tumanidagi
12-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

Anvar TOJIYEV

Aziz bolajonlarim!

Ilhomjon va u yasagan Temur nomli robot haqidagi
ertagimizni davom ettiramiz. Xotirangizda bo'lsa,
Ilhomjonning uydagilari robotni ko'rib, dovdirab
qolishgan, keyin esa bolakay bilan bir xonada
bo'lishgan rozi bo'lishgan edi. Bugun Ilhomjon
juda erta uyg'ondi va sakrab turib, robot do'stini
ko'rdi. U o'z o'rnida stulda qimirlamay o'tirar edi.

– Temur, uyg'ondingmi? – so'radi Ilhomjon.

– Men
do-i-mo
uy-g'oq-
ma n .

Ke-cha-si se-ning tu-
shing-ga kir-dim. Shun-
day-mi?

– Ha, kechasi seni tushimda ko'rdim.
Hayvonot bog'iga, keyin sirkka bo-
ribmiz.

– Tu-shing-da da-dang
bi-lan muz-qay-moq ye-
ding.

– Ha, to'g'ri. Sen ham
shunaqa tush ko'rding-
mi?

– Men ke-cha-si bi-
lan se-ning tu-shing-da
bo'l-dim.

– Sen qiziq ekansan-
ku. Tushimga kirib, men
bilan birga o'ynasang,
uxlamasang. Ovqat
yemasang, charchab
qolmaysanmi? Bog'cham-
ga seni olib borsam,
rosa qiziq bo'lar edi-da.
Bolalar sendan qo'rqib,
qochib ketishardi.

– Sen av-val yu-vi-nib o-li-shing ke-rak. Ke-yin
sut i-cha-san, ki-yi-na-san. Ke-yin da-dang bi-lan
bog'-cha-ga bo-ra-san.

– Buni o'zim ham bilaman. Hozir kelib, meni
sovonlab, ko'zimni achitib yuvintirishadi. Sutni
ichmaguncha qo'yishmaydi.

– Yu-vi-nish za-rur. Sut-ni ham-ma-si-ni i-chish
ke-rak!

– O'zing nega ichmaysan? Xohlasang, sutimning
yarmini senga beraman, maylimi?

– Men ich-may-man!

– Xo'sh, nima yeysan? Qorning ochib qolsa,
nima qilasan?

– Men ov-qat ye-may-man. Men u-chun ba-ta-
reya ish-lab tur-sa yeta-di.

– Batareya tugab qolsa, nima qilasan?

– Un-da men yo-tib qo-la-man. Men-ga ba-ta-
reya do-im za-rur.

Xonaga Ilhomjonning dadasi kirib keldi.

– Il-
homjon,
qanday
u x l a -

ding? Temur do'sting
ham uxladimi?

– Tushimda ikka-
lamiz birga o'ynadik.
Hayvonot bog'iga, sirkka
bordik.

– Siz Il-hom-jon-ga
muz-qay-moq o-lib ber-
din-giz, – dedi robot.

– Shunaqami? Juda
yaxshi. Qani, o'g'lim,
tez yuvinib ol, keyin sut
ichasan.

– Dadajon, Temur
ham men bilan bog'cha-
ga borsin, maylimi?
O'rtoqlarimga ko'rsa-
taman. Hamma hayron
qoladi.

– Robotni ko'rib, bola-
lar qo'rqib ketishadi-yu.

– Men qo'rqmayap-
man-ku. Ular ham
qo'rqishmaydi. Birga
o'ynaymiz.

– Robotni ko'tarib boramizmi?

– Temur o'zi yurib boradi. Ayt-chi, Temur, bog'cha-
ga yurib bora olasanmi?


– Ha, men bog'-cha-ga yu-rib bo-ra o-la-man.

Ilhomjon juda tez yuvindi, tishini cho'tkada tozaladi,
kiyindi, sutning hammasini ichib oldi. So'ngra,
do'sti Temur – robotni yetaklab bog'chaga ketdi.
Bog'chada bo'lgan voqealarni keyingi gal aytib
beraman.

(Davomi bor)

ILHOMJON VA UNING ROBOT DO'STI

(Sarguzasht ertak)



BOBOBEK MURABBIY BO'LMOQCHI

Bolalarni jismonan hamda aqlan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida gimnastikaning o'rni beqiyos. Mazkur sport turi bilan do'stlashgan iqtidorli o'quvchilardan biri Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Bobobek G'ulomiddinovidir.



Bobobek 10 yoshidan boshlab yengil atletikaning uzunlikka sakrash turi bilan muntazam shug'ullanadi. U 4-sinf dan o'z yoshi toifasida har yili tuman va viloyat birinchiliklarida g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda.

Kuni kecha o'tkazilgan «Umid nihollari» Beshariq tuman bosqichi bellashuvlarida ham unga teng keladigan raqib topilmadi.

– Sport bilan shug'ullanishimda jismoniy tarbiya fani ustozim Umidjon Olimovning mashg'ulotlari muhim o'ringa ega. Yoshligimdan ular rahbarlik

qilayotgan to'garakka qatnayman, – deydi Bobobek. – Qator yutuqlarga erishishimda ustozimning xizmatlari beqiyos. To'garak a'zolaridan Asadbek Ilhomov yengil atletikaning nayza otish, Murodjon Ismoilov yadro uloqtirish bo'yicha viloyatda 2-o'rinni, Zuhridin Abdurahmonov yugurish bo'yicha viloyatda 3-, Vazira Qahramonova esa yugurish, Aziz Tolipov esa sakrash bo'yicha tumanda faxrli o'rinlarni egallagan. Niyatim, maktabni a'lo baholarga tugatib, O'zbekiston jismoniy tarbiya institutiga o'qishga kirmoqchiman. Sport orqali yurtim nomini jahonga tanitib, xuddi ustozimdek iqtidorli o'quvchilarni sportda yutuqlarga erishishiga ko'maklashmoqchiman.

Nodira NAZAROVA

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 52-maxsus maktabda «Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash» shiori ostida sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

QUVNOQ ESTAFETA

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shetina Albina hamda jismoniy tarbiya o'qituvchisi Erkin Jamolov

tashkillashtirgan ushbu musobaqada 1–10-sinf o'quvchilari va barcha o'qituvchilar ishtirok etdi.

«Quvnoq estafeta» musobaqasi bu gal har doimgidan-da o'zgacha tarzda tashkil etildi. Bolalar undirilgan bug'doyli likopcha yoki sumalak to'ldirilgan piyolalarni qo'llarida ushlab musobaqa shartlarini bajardi.

Jamoaviy hisobda 1-«B», 3-«B», 4-«A», 8-«B» va 9-«B» sinf o'quvchilari g'olib bo'ldi.

1-«V» sinf o'quvchisi Sevinch Nazarova, 2-«B» sinfdan Umriniso Nishonova, 3-«B»dan Javohir Abdurasulov hamda 4-«A»dan Grigoriadis Roman «Eng faol ishtirokchi» nomiga sazovor bo'ldi.

Nurbek QIDIRALIYEV



Sport-sevar bolajonlar-u jajji shovvozlari! Maktabingizda turli bayram tadbirlari, sport musobaqalari o'tkazilsa, juda quvonib ketasiz-a? Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabida tahsil olayotgan tengdoshlaringiz ana shunday musobaqa tashkillashtirdi.

Ushbu tumir uzoq yillar maktabda jismoniy tarbiyadan saboq bergan To'lqin Haydarov xotirasiga bag'ishlandi. «Tinch va obod yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi» nomli sport musobaqasida asosan, 3-sinf o'quvchilari o'zaro bellashdi. Bahslarni 75-umumta'lim maktabining faxriy ustozlari Jo'ra Rahimov, Bahodir Mirzajonov, 193-umumta'lim

maktabining jismoniy tarbiya ustozlari O'tkir Haydarov, shu maktabning faxriy ustozlari Komil Zufarov, Abdug'ofur Safiyeichlar odilona baholab bordi. Tadbirni tashkillashtirishda Mamlakat Karimova, Mastura Shohaydarova, Gulchehra Botirova, Shohista Komiljonova, Mastura Isroilova va Shahlo Abdurahmonovalar jonkuyarlik ko'rsatdi.

O'quvchilar to'p, halqa, lentalar yordamida turli harakatlarni mohirlik bilan bajarib, arqon tortish shartlarini uyushqoqlik bilan o'tkazdi.

Bellashuvlar yakunida g'oliblar no-

SPORT BAYRAMI

an'anaviy tarzda aniqlandi va do'stlik g'alaba qozondi.



G'oliblarga To'lqin Haydarovning farzandi Umidjon Haydarov tomo-

nidan 36 nafar o'g'il bolaga futbol to'pi, 36 nafar qizga esa shaxmat-shashka taxtasi sovg'a qilindi. Sovg'alardan bolalarning boshi osmonga yetdi.

– Mana, 10 yildan buyon maktabda bunday musobaqalar muntazam tashkil etiladi. Rahmatli otajonim hayotligida ham «Quvnoq startlar» bellashuvlarini o'tkazardi. Bu kabi tadbirlar, eng avvalo, bolajonlarni sportga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda chaqqon, epcil bo'lishlarida katta yordam beradi, – deydi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, To'lqin Haydarovning qizlari Feruza Nishonova.

Manzura UBAYDULLAYEVA





Turob NIYOZ,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Taniqli ijodkor Turob Niyoz Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi Qoratosh qishlog'ida tug'ilgan. She'rlari Respublika nashrlarida chop etib kelinmoqda.

O'nga yaqin she'riy kitoblari nashr etilgan. Taniqli shoir «Muhabbat osmoni» kitobi uchun 2007-yili «Eng aziz, eng ulug'» respublika ko'rik-tanlovining g'oliblaridan biri bo'lgan.

T. Niyozning yuzga yaqin she'rlariga kuy bastalanib, xalqimizning mashhur xonandalari tomonidan ijro etib kelinmoqda.

Quyida e'tiboringizga T. Niyozning siz bolajonlarga atab yozgan beshlik topishmoqlaridan havola qilamiz.

BESHLIK TOPISHMOQLAR

Mas'uliyatni bo'yniga olib,
Kim mag'lubdir, kim esa g'olib,
Aniqlaydi birinchi bo'lib,
Xolislikka intilar har dam,
Bu - ...

Sportning eng qiziq o'yini,
Adl tutib qadd-u bo'yingni.
To'rga tushirolsang to'pingni,
G'olib bo'ladirsan bemalol,
Bu - ...

Har bir yaxshilikka javob bo'lgaydir,
Xuddi yaxshilikday savob bo'lgaydir.
Dilga ziyo bo'lgay, oftob bo'lgaydir,
Yodingdan chiqarib qo'ymagil faqat,
Bu - ...

Uni ko'tarmoqni istaydi polvon,
Gohida mushkul bu, gohida oson.
Bir-biriga tengdir o'ng-u so'l tomon,
U bo'ysunar faqat zo'r, chiniqqanga,
Bu - ...

Haydash uchun o'qish shart emas,
Qo'l-oyog'ing sog'lom bo'lsa, bas.
Yurganida shovqin ham qilmas,
Uni hayda, manzilingga yet,
Bu - ...

Unga qog'oz, bo'yoq shart emas,
Suv ichmaydi, ovqat ham yemas.
Tinmasa ham biror so'z demas,
Rasm chizgil, xohla yozgil she'r,
Bu - ...

To'plarning eng a'losi,
To'plarning eng sarasi.
Futbolchilar hammasi,
Orzu qilari uni xo'b,
Bu - ...



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«G» HARFLI TOPQIRLIK MASHQLARI


KROSSVORD

Eniga: 5. Yo'llarni tekislaydigan tirkama mashina. 6. O'rta asr italyan olimi, teleskop ixtirochisi. 7. Havo namligini uzluksiz qayd qiluvchi asbob. 10. Milliy naqsh turi. 11. Badiiy to'qimachilik buyumi, jihoz. 14. Ro'molning shokila qismi. 15. Sharafiga induktivlik birligining nomi berilgan amerikalik fizik. 18. Qiyoy bargli, turfa rangda ochiladigan gul. 19. Tarix faniga asos solgan qadimgi yunon tarixchisi. 20. G'o'lacha va tayyoqchalar bilan o'ynaladigan o'yin.

Bo'yiga: 1. London shahri yaqinidagi observatoriya. 2. Kimyoviy element, gaz modda. 3. Avtomobillar saqlanadigan inshoot. 4. Yer kurrasini o'rganuvchi mutaxassis. 8. Suyuqlik bosimi ostida ishlovchi qurilma. 9. Suv inshootlari majmui. 12. Yoz fasliga xos issiq shamol. 13. Rassomlik san'ati sohasi. 16. Manzarali o'simlikdan tayyorlangan ichimlik. 17. Markaziy Afrikadagi davlat.

CHAYNVORD 1. Hindistondagi daryo. 2. Germaniyadagi port shahar. 3. Foydali qazilmalarni topuvchi mutaxassis. 4. Shvetsiyaning janubiy-g'arbidagi shahar.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



8

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSUNOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 14858
Buyurtma - V 3245

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushamba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08